


O‘zbekiston Respublikasi

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**60112400 – Professional ta’lim: 60211500 - Cholg’u ijrochiligi
(an’anaviy cholg’ular) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari**

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil “21” 08 dagi 367-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talabi “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

	bet
T/r	
1. <i>60112400 – Professional ta’lim: 60211500 - Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi</i>	4
1.1. Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1. <i>60112400 – Professional ta’lim: 60211500 - Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) ta’lim yo‘nalishi malaka talabining qo‘llanilishi.....</i>	4
1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilar.....	4
1.2. <i>60112400–Professional ta’lim: 60211500-Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi</i>	4
1.2.1. <i>60112400 – Professional ta’lim: 60211500 – Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ijodiy sohalari.....</i>	4
1.2.2. <i>60112400 – Professional ta’lim: 60211500 - Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ob’ektlari.....</i>	4
1.2.3. <i>60112400 – Professional ta’lim: 60211500 - Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining turlari.....</i>	5
1.2.4. <i>60112400 – Professional ta’lim: 60211500 - Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari.....</i>	5
2. <i>60112400 – Professional ta’lim: 60211500 - Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrлarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....</i>	6
2.1. Umumi kompetensiyalar.....	6
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3. Umumi va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.3.1. Kvalifikatsiya.....	7
2.3.2. <i>60112400 – Professional ta’lim: 60211500 - Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....</i>	8
2.3.3. <i>60112400 – Professional ta’lim: 60211500 - Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi.....</i>	8
Bibliografik ma’lumotlar	9
Kelishuv varag‘i	10

1. 60112400 – Professional ta’lim: 60211500 - Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi

60112400 – Professional ta’lim: 60211500 - Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 60112400 – Professional ta’lim: 60211500 - Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60112400 – Professional ta’lim: 60211500 - Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar tayyorlovchi barcha oliv ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliv ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig’i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

– ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliv ta’lim tashkilotining talabalari;

– bakalavriat bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

– ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

– oliv ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

– oliv ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliv ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60112400 – Professional ta’lim: 60211500 – Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60112400 – Professional ta’lim: 60211500 – Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatining sohalari:

60112400 – Professional ta’lim: 60211500 – Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi – fan, ta’lim va san’at sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, san’at va madaniyat muassasalarida, davlat va mahalliy boshqaruv organlarida, davlat korxona va tashkilotlarida, ta’lim muassasalarida, turli fondlar va loyihalarda hamda turli mulkchilik shaklidagi san’tga oid ishlar bilan bog’liq tashkiliy-ijodiy-iqtisodiy, ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, san’at ta’lim sohasining tegishli yo‘nalishlari bilan bog’liq kompleks masalalari mazmunini qamrab oladi.

1.2.2. 60112400 – Professional ta’lim: 60211500 – Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari:

–san’at sohasidagi tegishli jarayonlar;

–ijodiy faoliyat jarayonlari;

–mualliflik huquqi himoyasiga tegishli qoidalar, san’at sohasining axborot va dasturiy ta’minoti;

–yaratilgan asarlar va ularning targ’iboti;

–xalq kuy va ashulalari, o‘zbek bastakorlari asarlari, maqom ijrochiligi hamda ijodiy g‘oyalarni loyihalash va amaliyotga tadbiq qilish jarayonlari;

–o‘quv-tarbiya jarayoni.

1.2.3. 60112400 – Professional ta’lim: 60211500 – Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ijodiy-ijrochilik;
- professional ta’lim, kasb-hunar, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, mактабдан ташқари та’лим муассасалари hamda musiqa va san’atga ixtisoslashtirilgan mактаб va mактаб-internatlarda pedagogik;
- ijtimoiy ma’rifiy;
- tashkiliy-boshqaruv;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati.

1.2.4. 60112400 – Professional ta’lim: 60211500 – Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha baklavrlarning kasbiy vazifalari:

60112400 – Professional ta’lim: 60211500 – Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ijodiy-ijrochilik faoliyatida:

- musiqiy asarlarni yuksak badiiy saviyada ijro etish bilan bog’liq ijodiy ishlarni olib borish;
- ularni ijro etish ko‘nikmalari va zamonaviy musiqiy ifodalash vositalarini egallash;
- ijro etilayotgan asarlarining mazmuni, shakli va uslubini baholash;
- katta va kichik jamoalarni badiiy rahbar sifatida boshqara olish;
- ansamblarga rahbarlik qila olish;
- musiqiy asarlarning badiiy kontseptsiyasini yaratib, teatr-kontsert muassasalari, ansamblarda sozandalik qilish;
- musiqaning mazmuni, shakli va uslubini tushunish;
- ijrochilikda badihago‘ylik san’atini qo‘llash;
- jamoada ijrochilik *qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak*.

Professional ta’lim, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, mактабдан ташқари та’лим muassasalarida pedagogik faoliyatda:

- professional ta’lim, kasb-hunar, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, mактабдан ташқари та’лим tizimining ixtisoslikka mos ta’lim muassasalarida tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha nazariy, amaliy va yakka (laboratoriya) mashg’ulotlarini o‘tkazish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandard o‘quv mashg’ulotlarini o‘tkazish usullarini ishlab chiqish va o‘tkazish;
- o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha o‘quv mashg’ulotlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-uslubiy hujjalarni shakllantirish va tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- o‘qitilayotgan fan bo‘yicha o‘quv mashg’ulotlarini o‘tkazish uchun o‘qitishning didaktik vositalaridan foydalanishi;
- mustaqil ta’lim va ilmiy-ijodiy izlanish ishlari natijasida o‘qitilayotgan fan bo‘yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish;
- o‘quv-tarbiyaviy, uslubiy va ilmiy-tadqiqiy ishlarni rejalashtirish, tashkil qilish va amalgamashirish;
- musiqa olami hodisalarini mustaqil anglash va ta’lim jarayoniga singdirish;
- o‘quv jarayonini, o‘quv-uslubiy, ma’naviy-tarbiyaviy va ilmiy ishlarni tashkil etishning ilg’or tajribalarini umumlashtirish va keng yoyish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- ijodiy jarayonlarni tashkil etish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tadbiq qilish;
- ijodiy jarayonlarni amalgamashirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- informatsion texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog’liq bo‘lgan ijodiy jarayonlarni monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

–atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat havfsizligi talablariga mos kelishi borasida ijodiy jarayonlarni nazorat qilish;

- ijrochilik ko‘nikmalarini amaliyotga tadbiq qilish;
- ijodiy jarayonda sifatni boshqarish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- birlamchi musiqiy asarlarni qayta ishlash ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda musiqa ijrochiligidagi oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etish;
- internet tarmog’ida eng yangi ilmiy-ijodiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;
- musiqa san’atiga oid ilmiy to‘plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o‘rganish;
- kasbiy faoliyat ob’ekti yo‘nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihamalarini o‘rganish;
- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashish;
- ma’lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish.

2. 60112400 – Professional ta’lim: 60211500 – Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy kompetentsiyalariga qo‘yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetentsiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamонавиј ilmiy asosda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig’ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, hamkorlik yozishmalari va elektron aloqalarni olib borish, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish.

2.2. Kasbiy kompetentsiyalar:

- milliy o‘zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo, yosh avlodni yuksak insoniy tuyg’ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san’atining keng imkoniyatlaridan foydalana olish;
- maqom san’ati yo‘nalishida ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o‘quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, maqom san’atini radio-televidenie, ommaviy axborot vositalari, internet tarmog’i orqali targ’ib eta olish;
- me’yoriy-huquqiy hujjatlardan o‘zlarining professional faoliyatlarida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

–maqom cholg’u ijrochiligi bo‘yicha kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarini egallash va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olish;

–pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, ta’lim oluvchilar bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

–pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, musiqiy ta’lim va tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g’ri belgilash, musiqa ta’limida metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, ularni samarali qo‘llay olish;

–axborot muhitida san’at sohasiga oid zarur, muhim ma’lumotlarni izlash, yig’ish, saralash, qayta ishslash va ulardan maqsadli va samarali foydalanish;

–musiqiy-pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijrochilik, ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

–ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g’oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

–ilg’or pedagogik va innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy ta’lim vositalari, texnika va texnologiyalardan foydalana olish, innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq eta olish;

–izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borishi, kasbiy faoliyatda o‘zining ichki imkoniyatlarini, pedagogik mahoratini namoyon qilish;

–ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishi.

2.3.Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallahni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar:

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallahsga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta’lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘srimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashsga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarini shakllantirishsga qaratiladi;

Pedagogik amaliyot – pedagogik mahoratini oshirishsga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg‘ular) fanlari o‘qituvchisi.

(Ijrochilikda istedodi alohida etirof etilgan bitiruvchiga yakka sozanda, ansambl sozandasini shuningdek, “Qo‘srimcha cholg‘ularni o‘rganish” fanini yuqori darajada o‘zlashtirgan bitiruvchiga o‘rgangan cholg‘usining nomi qavs ichida ko‘rsatiladi.)

2.3.2. 60112400–Professional ta’lim: 60211500–Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratiladigan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	6300	210
Tanlov fanlar	360	12
Malakaviy amaliyot	390	13
Bitiruv malakaviy ishi	150	5
JAMI:	7200	240

2.3.3. 60112400–Professional ta’lim: 60211500–Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	6300	210	
1.01	CHI1820	Cholg’u ijrochiligi (an’anaviy cholg’ular)	600	20	1-8
1.02	AS1851	Ansambl sinfi (an’anaviy cholg’ular)	1530	51	1-8
1.03	TCHO‘1810	Turdosh cholg’ularini o‘rganish	300	10	3-8
1.04	CH1102	Cholg’ushunoslik (Milliy cholg’ular ansamblsi)	60	2	1
1.05	MRO‘1812	Maktab repertuarini o‘rganish	360	12	1-8
1.06	CHIO‘U1205	Cholg’u ijrochiligini o‘qitish uslubiyoti	150	5	7-8
1.07	JIU1205	Jamoa ijrochiligi uslubiyoti	150	5	7-8
1.08	JMT 1205	Jahon musiqasi tarixi	150	5	1-2
1.09	O‘MT1410	O‘zbek musiqasi tarixi	300	10	1-4
1.10	O‘BI1205	O‘zbek bastakorlik ijodiyoti	150	5	5-6
1.11	SHXMT1205	Sharq xalqlari musiqasi tarixi	150	5	5-6
1.12	XMI1205	Xalq musiqa ijodiyoti	150	5	5-6
1.13	S.MS.1410	Solfedjió. Maqom solfedjio	300	10	1-4
1.14	GYA1205	Garmoniya	150	5	3-4
1.15	MAT1205	Musiqa asarlari tahlili	150	5	5-6
1.16	FNO1202	Fortepiano	60	2	3-4
1.17	AM1205	Aruz va musiqa	150	5	1-2
1.18	SHPA1205	Shashmaqom parda (Iad) asoslari	150	5	4-5
1.19	MA1512	Maqom asoslari (maqomlar tahlili)	360	12	2-6
1.20	MPP1205	Musiqiy pedagogika va psixologiya	150	5	7-8
1.21	KP1105	Kasbiy pedagogika	150	5	8
1.22	TIM1102	Tarbiyaviy ishlar metodikasi	60	2	7
1.23	FT1205	Fors tili	150	5	1-2
1.24	ATM1102	Axborot texnologiyalarida musiqani matematik modellashtirish	60	2	6
1.25	DNK1204	Dinshunoslik	120	4	2-3
1.26	FFA1204	Falsafa	120	4	7-8
1.27	O‘YT1204	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1-2
2.00		Tanlov fanlar	360	12	
		Jami	6660	222	
		Malakaviy amaliyot	390	13	2.4.6.8
		Bitiruv malakaviy ishi	150	5	8
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetentsiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalaviratning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rghanish natijalari, o'quv davri, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorat, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyat, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlar bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, ijrochi-ijadkorlik, ilmiy tadqiqot jarayoni.

**Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
60112400—Professional ta'lif: 60211500—Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular)
ta'lif yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiquvchilar,
turdosh oliy ta'lif muassasalarini va asosiy kadrlar iste'molchilarini o'rtaida**

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ” 2023 yil

Biz quyidagi imzo chekuvchilar—O'zbek milliy maqom san'ati markazi direktori S.Begmatov, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori A.Kirgizbayev, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti rektori O.Nazarbekov birligida Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMMSIda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lif yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

**60112400—Professional ta'lif: 60211500—Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular)
ta'lif yo'nalishi.**

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-som farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-som, 2017-yil 27-iyuldagagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5131-som, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-som, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “2019-2020 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida”gi PQ-4369-som Qarorlariga hamda oliy ta'lif sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilarini tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lif yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O'zbek milliy maqom san'ati
markazi direktori**



S. Begmatov

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti rektori**



A. Kirgizbayev

**Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek
milliy musiqa san'ati instituti rektori**




O. Nazarbekov

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar istemolchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy
musaqa san'ati instituti

Rektor  O.A.Nazarbekov

2023 yil « 14 » 08

M.O.



O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat va turizm vazirligi
“Ta'lim va ilm fanni rivojlantirish
boshqarmasi”

Direktor


 Sh.U.Yakubov

2023 yil « 21 » 08

M.O.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti

Rektor.v.vd.

 E.O'.Shermanov

2023 yil « 15 » 08

M.O.

O'zbekiston kompozitorlari va
bastakorlari nyushmasi

Rais

 R.A.Abdullayev

2023 yil « 17 » 08

M.O.

Boshqarma boshlig'i

 N.K.Kasimov

2023 yil « 15 » 08



O'zbekiston davlat konservatoriysi

Direktor

 K.T.Urinbayev

2023 yil « 16 » 08



O'zbek milliy maqom san'ati
markazi

Direktor

 S.M.Begmatov

2023 yil « 17 » 08

M.O.